Rahimboyev Abdulla



Rahimboyev Abdulla

(1896 yil, Xo‘jand – 1938 yil, 7 may)

Davlat va jamoat arbobi bo‘lgan Abdulla Rahimboyev Xo‘jand shahrining ***Razzoqi mahallasi***da savdogar oilasida dunyoga kelgan. 1910-1912 yillarda u Samarqanddagi erkaklar gimnaziyasida, so‘ngra Toshkentdagi o‘qituvchilar seminariyasida bilim oldi (1917). U 14 ta tilni bilgan.

A. Rahimboyev 1919 yildan boshlab sovet idoralarida xizmat qila boshladi. *Turkiston ASSR MIKning raisi* (1920-1922), *Turkiston ASSR Maorif xalq komissari* lavozimlarida ishladi. uning ongiga “kommunistik g‘oya”ni singdirish uchun 1922 yilda u Moskvaga chaqiriladi. Markaziy hukumat qoshidagi “tayyorlov”dan so‘ng A. Rahimboyev *Buxoro Kompartiyasi* va *Turkiston KPning Markaziy Qo‘mitasi kotibi* lavozimlarida ishladi (1923-24). O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazishda faol qatnashdi va bu tadbirni qo‘llab-quvvatladi.

A. Rahimboyev 1925 yildan Moskvada yashay boshladi. *SSSR xalqlari Markaziy nashriyoti boshqarmasi*

raisi lavozimida ishladi (1928). So‘ngra u Dushanbega yuborildi. *Tojikiston SSR XKKning raisi* (1934-1937) sifatida ham faoliyat ko‘rsatdi.

A. Rahimboyev 1937 yilda qamoqqa olindi va 1938 yil 7-mayda otib tashlandi.

2023-12-20 11:17:55